

Xoziyeva Muxlisa Abdumansur qizi

2005-yil 26-mart kuni Toshkent viloyatida tavallud topdi.

2012-2023 o‘quv yillarida Toshkent viloyatida Qibray tumanida joylashgan 30-umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘qib, maktabni a’lo baholarga tugatib, oltin medal bilan taqdirlandi. Maktab vaqtlaridanoq adabiyotiga qizig‘ishi baland edi. She’rlar yozishni mashq qila boshladi. 2023-yil Alfraganus universiteti Filologiya fakultetining O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishiga talabalikka qabul qilindi. 2023-yil 15-dekabrda "Sog‘inganim-dekabr" nomli to‘lamda o‘z she’rlari va maqolasi bilan qatnashib, bu to‘plam Amerika qo‘shma shtatlarida nashr etildi. Xalqaro "Kenya Times" gazetasida o‘z she’rlari va hikoyalari bilan qatnashib kelmoqda. Hindiston-Bangladesh hamkorligidagi nashriyotda "Wolf as a totem in Uzbek mythology" mavzusida maqolasi nashr etildi. Maqolasi uchun sertifikat hamda ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. "Yangi Renessans Yoshlari" va Buyuk Britaniyaning JustFiction! edition nashriyoti bilan hamkorlikda nashr etilgan "Iste‘dodli qalamkashlar" antologiyasida o‘z ijodiy ishlari bilan qatnashib sertifikat sohibasi bo‘ldi. "Moldovaning JustFiction edition" nashriyoti bilan hamkorlikda nashr etilgan "Ziyo istagan qalblar" antologiyasida o‘z she’rlari bilan qatnashdi. 2024- 2025 o‘quv yili uchun Alfraganus universiteti Rektor granti sohibasi bo‘ldi.

**GRAMMATIK KATEGORIYA****Xoziyeva Muxlisa Abdumansur qizi**

*Alfraganus universiteti Filologiya fakulteti ‘Sharq filologiyasi’fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2 - bosqich talabasi
e-mail:muxlisaxoziyeva26@gmail.com*

Annotatsiya: O‘zga tillarni o‘rganish doim barcha xalqlar uchun qiziq mashg‘ulot hisoblanadi. Til o‘rganish uchun esa, uning grammatikasini puxta egallash lozim. Buning uchun tildagi grammatik qarashlar va tushunchalarini ham bilib olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu maqolamizda grammatik kategoriya haqidagi nazariy qarashlar haqida fikr yuritdik. Grammatik kategoriya haqida Ra‘no Sayfullayeva, Qalandar Sapayev va Abdulhamid Nurmonovlarning fikrlarini bir-biriga qiyoslab o‘rgandik.

Tayanch so`zlar: *kategoriya, grammatic kategoriya, sintagma, o`zgalovchi kategoriya.*

KIRISH:

Grammatik kategoriya mavzusida ilmiy maqola yozar ekanmiz, Qalandar Sapayev, Ra’no Sayfullayeva va bir qancha olim va olimalarimizning ilmiy izlanishlarini o’rganmay ilojimiz yo’q. Garchi, bu olimlarimiz bizdan ko’ra ancha tajribali bo’lsalarda. Bu maqolamizda grammatic kategoriya mavzusida ilmiy ish olib borgan tilshunoslarimizning o’xhash va farqli tomonlarini ko’rib chiqamiz.

Asosiy qism:

Ra’no Sayfullayeva grammatic kategoriya haqida yozar ekan, eng avval kategoriya atamasiga izoh beib o’tadi va kategoriya so’zi tilshunoslikka falsafa fanidan kirib kelgan termin ekanligini ta’kidlaydi. Kategoriya so’zi – falsafada ob’ektiv borliq va bilishdagi mohiyatan ko’proq qonuniy aloqa va munosabatni aks ettiruvchi umumiy tushuncha – ekanini aytib, falsafada ham tilshunoslikda ham kategoriya bir xil narsani ataydi - deb aytadi. Kategoriya uchun esa juftlik va alohidalik xos bo’lishi shart.

Bugungi tilshunosligimizda Grammatik kategoriya atamasi ostida, asosan morfologik kategoriyanı tan olish ustuvor hisoblanadi. Sintaktik kategoriya ham grammatic kategoriya sifatida qaralishi, ammo sintaktik tekshiruvlarda bu tushuncha ahamiyat kasb etmasligini haqli ravishda ifoda etadi.

Grammatik kategoriya –muayyan ma’no umumiyligi ostida birlashgan va o’zaro bu ma’noning parchalanishi, xususiy lashishuvi asosida zidlanadigan shakllar sistemasi hisoblanadi – deydi Ra’no Sayfullayeva.


Qalandar Sapayevning fikrich: “Grammatik kategoriyanı – Grammatik ma’no bilan uning shakily ifodasi birgalikda tashkil qiladi”, - deyiladi va “ Grammatik kategoriylar bevosita morfologiyaga xos bo’lgan so’z turkumlari, Grammatik son, kelishik, zamon kabi hodisalarni shuningdek, sintagma, ega, kesim, to’ldiruvchi kabi hodisalarni (sintaktik kategoriyalarni) o’z ichiga oladi”, - deydi.

Yuqorida aytilgan fikrlarga ko’ra Qalandar Sapayev grammatic kategoriyanı 2 turiga ajratamiz: 1) morfologik kategoriya; 2) sintaktik kategoriya.

O’zaro bir-biriga zid qo’yilgan va qiyosan olingan grammatic ma’nolar tizimi va ularga xos ifoda vositalari – grammatic shakllar tizimi **morfologik kategoriya** deyiladi. Morfologik kategoriya so’zning qaysi turkumga kirishi bilan bog’liq. Har bir so’z turkumining o’z grammatic kategoriysi bor.

Asosida yotuvchi ma’nosiga ko’ra birlashib, sintaktik munosabatni ko’rsatish uchun xizmat qiluvchi shakllar tizimi **sintaktik kategoriya** deyildi.

GRAMMATIK
MA'NO



GRAMMATIK
SHAKL

GRAMMATIK
KATEGORIYA

1-rasm

Demak, grammatik kategoriya grammatik ma'no va grammatik shakl birikuvudan hosil bo'ladi. (1-rasm)

Garmmatik kategoriyalarni Ra'no Sayfullayeva quyidagi turlarga ajratadi: harakat tarzi kategoriysi, daraja kategoriysi, kesimlik kategoriysi, o'zgalovchi kategoriysi, nisbat kategoriysi, bo'lishli- bo'lishsizlik kategoriysi, kelishik kategoriysi, son kategoriysi, egalik kategoriysi. (2-rasm)

Harakat tarzi
kategoriysi

O'zgalovchi
kategoriya

Kelishik
kategoriysi

Daraja
kategoriysi

Nisbat
kategoriysi


Son
kategoriysi

Kesimlik
kategoriyasi

Bo'lishli
bo'lishsizlik

Egalik
kategoriysi

Nurmonov esa Grammatik kategoriyalarni quyidagicha turlarga ajratadi: qiyoslash kategoriysi, kesimlik kategoriysi, nisbat kategoriysi, bo`lishli-bo`lishsizlik kategoriysi, kelishik kategoriysi, son kategoriysi, egalik kategoriysi. (3-rasm)



Xulosa: So`z turkumlari tasnifi diomo barcha xalqlar, ellatlar aro juda qiziq va dolzarb mavzu bo`lib qoladi. Grammatik shakl, grammatic ma`no va grammatic kategoriylar esa ularning bir bo`lagidir. Bu maqolamizda Grammatik kategoriya haqidagi nazariyalarni va olimlarning fikrlarini bir-biri bilkan solishtirib o`rganar ekanmiz, ulardagи turf axil qarashlarni o`z fikrlari, anglashlari, tushunishlari va o`rganishlari yuzasida ushbu firkda ekanliklariga guvoh bo`ldik.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Sayfullayeva R. va boshqalar Hozirgi o`zbek adbiy tili – T.2009
2. Sapayev Q. Hozirgi o`zbek adabiy tili - T. 2009
3. Nurmonnov A. va boshqalar. O`zbek tilining nazariy grammaticasi. Morfologiya. – T.2001